

**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**PRECEDENCE AND ITS EXPRESSION THROUGH SYNTACTIC UNITS IN THE POETRY OF ESHKABIL SHUKUR***N. Erkinova**senior lecturer**Oriental University**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: poetry, linguistic culture, precedent units, linguopoetics, linguistic approach, symbol.

Received: 14.03.23**Accepted:** 16.03.23**Published:** 18.03.23

Abstract: Eshkabil Shukur's poetry is distinguished by special attention to the artistic word. The poet's creativity is based on the skill of using words. Famous phrases, sentences, and texts used in E. Shukur's poems have a poetic value by fulfilling the role of a precedent unit.

ESHQOBIL SHUKUR SHE'RIYATIDA PRETSEDENTLIK VA UNING SINTAKTIK BIRLIKLAR ORQALI IFODALANISHI*N. Erkinova**katta o'qituvchisi**Oriental universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: she'riyat, lingvokulturologiya, pretsedent birliklar, lingvopoetika, lingvistik yondashuv, timsol.

Annotatsiya: Eshqobil Shukur she'riyati badiiy so'zga alohida e'tibor berishi bilan ajralib turadi. Shoir ijodining asosida so'z qo'llashdagi mahorati muhim o'rin tutadi. E.Shukur she'rlarida qo'llangan mashhur so'z birikmalari, jumlar, matnlar pretsedent birlik vazifasini bajarib, poetik qiymatga ega bo'lgan.

ПРЕЦЕДЕНТ И ЕГО ВЫРАЖЕНИЕ ЧЕРЕЗ СИНТАКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В ПОЭЗИИ ЭШКАБИЛ ШУКУР*Н. Эркинова**старший преподаватель**Oriental университет**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: поэзия, лингвокультура, прецедентные единицы, лингвопоэтика, лингвистический подход, символ.

Аннотация: Поэзия Эшкабиля Шукура отличается особым вниманием к художественному слову. Творчество поэта основано на умении пользоваться словом. Известные фразы, предложения и тексты, использованные в стихах Э. Шукура, имеют поэтическую ценность, выполняя роль прецедентной единицы.

KIRISH

Keyingi yillarda lingvokulturologiyada “muayyan til egalariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so‘z birikmalari, jumlar hamda matnlar pretsedent birliklar sifatida” keng o‘rganib kelinmoqda. Darhaqiqat, pretsedent birliklar muayyan xalqning “lisoniy mulki” bo‘lib, asosan, shu xalqining milliy ongida o‘rnashgan va nutqida tez-tez takrorlanadigan mashhur birliklar bo‘lganligi sababli, avvalo, lingvokulturologik xususiyat kasb etadi. Ammo e’tirof etish joizki, pretsedent birliklar nafaqat lingvokulturologiyaning, balki lingvopoetikaning ham o‘rganish obyekti bo‘la oladi. Lingvopoetik tahlil uchun badiiy matn tarkibida qo‘llangan pretsedent birliklarning badiiy-estetik vazifasi ahamiyatlidir. Badiiy matn tarkibida pretsedent birliklar vazifasidagi so‘z birikmalari va jumlar bejiz qo‘llanmaydi, ular, so‘zsiz, badiiylikni hosil qilish maqsadi asosida matnga olib kiriladi. Pretsedent birliklarga xos bu xususiyatni anglab yetgan E.Shukur o‘z she’rlarida badiiylikni hosil qilishning mazkur usulidan unumli foydalanadi.

ASOSIY QISM

Tilshunoslikda sintaktik birlik maqomidagi pretsedent birliklar so‘z birikmasi, gap (jumla) va yirik matnlar tuzilishida bo‘ladi. Tilshunoslikda bu birliklarga nisbatan ko‘pincha *pretsedent matn* terminidan foydalaniladi.

Y.V. Potyomkinaning qayd etishicha, bugungi kunda pretsedent matn termini *pretsedent jumla*, *logoepistema*, *pretsedent matn reministsentsiyasi*, *pretsedent fenomeni* kabilar bilan bir terminologik paradigma qatoriga kiritilgan. Tadqiqotchi ular uchun umumiy bo‘lgan pretsedent matn terminidan foydalanishni ma’qul ko‘radi. Bizningcha, jumla (gap) va undan yirik sintaktik birlik hisoblangan matn bir-biridan farqlanar ekan, ularga nisbatan umumiy tarzda pretsedent matn terminini qo‘llash unchalik to‘g‘ri emas. Tilda hatto so‘z birikmasi shaklidagi *pretsedent birliklar* ham mavjud. Shunga ko‘ra, bunday birliklarga nisbatan umumiy tarzda pretsedent birliklar terminini qo‘llash to‘g‘riroq bo‘ladi.

D.Xudoyberganovanning ta’kidlashicha, bunday pretsedent birliklar til egalari lisoniy xotirasida saqlanuvchi birliklar bo‘lib, ularga barqaror birikmalar (frazologizm, turg‘un o‘xshatish va

metaforalar, nutqiy etiketlar, maqol va hadislar) kiradi. Ayrim ishlarda pretsedent jumlar qanotli soʻzlar, logoepistemalar deb ham yuritilgan.

E.Shukur sheʼrlarida qoʻllangan bu kabi mashhur soʻz birikmalari, jumlar, matnlar pretsedent birlik vazifasini bajarib, poetik qimmatga ega boʻlgan. Masalan, shoirning “*Sehr*” sheʼrida *tilla baliqcha* soʻz birikmasi qoʻllangan boʻlib, u bugungi kunda pretsedent birlik darajasiga koʻtarilgan:

Kecha tildan qoldi, qoldi-ya tildan...

Hilol etagida yigʻlayotgan sen...

Qadimiy oyatlar bitilgan yoʻlda,

Eshqobil emasman endi men.

Dengizlar koʻkarib tortadi chilim,

Baxmal bulutlarni kiyayotgan sen.

Oltin baliqcha *ga aylandi tilim,*

Eshqobil emasman endi men.

Maʼlumki, oltin baliqcha rus shoiri A.S.Pushkinning mashhur “Baliqchi va baliq haqidagi ertak” asari qahramoni boʻlib, oʻzbek kitobxonlariga ham yaxshi tanish. Shuningdek, oʻzbek xalqida ham “Oltin baliq” ertagi mavjud. Sheʼrda mana shu asarlar qahramoniga ishora qilinib, oʻquvchi koʻz oldida obrazli badiiy tasvir hosil qilingan.

E.Shukur Qurʼoni karim suralari oyatlaridan, hadislardan ham ilhomlanib, goʻzal sheʼrlar yaratgan. U quyidagi sheʼrda islomiy termin hisoblangan *besh farz* pretsedent birligini qoʻllab, oʻziga xos badiiy tasvir hosil qilgan. Besh barmoq shoir xotirasida musulmon ahli amalga oshirishi shart boʻlgan beshta farzni tiklagan deb hisoblash mumkin. Shoirning assotsiativ tafakkuri hosilasi sifatida mazkur sheʼrda *besh barmoq – besh farz* assotsiatsiyasi oʻrin olgan. Sheʼrda har bir barmoqning bittadan farzga qiyoslanishi badiiy tasvir uchun xizmat qilib, badiiylikni yuzaga keltirgan:

Besh farzga ishora beshta barmogʻing

Va qonli kemaday dilga minmogʻing,

Oʻz sari yurmogʻing, oʻzga bormogʻing...

Bu dunyo – kelmakdur, mohiyat – ketmak,

Oʻzingdan oʻtmak bu – Ollohga yetmak. (“Hamal ayvoni”)

E.Shukur sheʼrlarida buyuk allomalar asarlarida qoʻllangan hamda pretsedent birlikka aylangan soʻz birikmalari ham uchraydi. Masalan, quyidagi sheʼriy parchada Zahiriddin Muhammad Bobur sheʼrlarida koʻp qoʻllangan mashhur *yuz oh* (Masalan: *Keldim sanga yuz umid bila, ey moh, Lekin yondim yuzingni koʻrmay, yuz oh; Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur, Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur*) soʻz birikmasi uchraydi:

... Buyuk zalvor bilan shoshar koinot,

Qaygadir shoshilib borayapman men.

Qayoqqa, bilmayman, evoh, qayoqqa?

Bobur aytganiday, yuz oh, qayoqqa? (“Xuan Ramon Ximenes kitobiga yozuv”)

E.Shukur she’rlari tahlili uning she’rlarida so‘z birikmasi va gap shaklidagi pretsedent birliklarning quyidagi tartibda ishlatilganligi aniqlandi:

1. She’riy matnga pretsedent birliklar aynan kiritilgan.

E.Shukur she’rlariga maqol, shior kabi matnlarni o‘z shaklida, semantik va sintaktik strukturasini o‘zgartirmay, aynan kiritganligi kuzatiladi. Masalan, shoir “Naqshband” dostonida mashhur *“Dil ba yor-u, dast ba kor”* (“Ko‘ngil Allohda bo‘lsin-u, qo‘l ish bilan band bo‘laversin”) shiorini aynan qo‘llagan. Asarda ushbu shior orqali naqshbandiya tariqatining mohiyatiga ishora qilinib, o‘ziga xos tasviriylikka erishilgan:

“Dil ba yor-u, dast ba kor”

BU SO‘ZNI —

Bu quyma oltinni olmak istadim,

Ichimda mahbus qush ruhoniyatim.

BU SO‘ZNI —

Oy tuya ustida qonagan bag‘irni

Yulduz yorug‘ida bilmak istadim... (“Naqshband”)

2. She’riy matnda pretsedent birliklar ayrim shakliy o‘zgarishlar bilan berilgan.

E.Shukur she’rlarida so‘z birikmasi va gap shaklidagi pretsedent birliklarning kichik shakliy o‘zgarishlar bilan, ammo matn mazmuni to‘la saqlanib qolinganda qo‘llanganligi ham qayd etildi.

Shoir quyidagi she’rida *“Ot aylanib qozig‘ini topadi”* o‘zbek xalq maqolidan foydalanib, o‘ziga xos badiiy tasvirni yuzaga keltirgan. She’rda maqolning sintaktik strukturasiga kichik o‘zgartirish kiritilgan, maqolning kesimi qofiya talabiga moslashtirilib, sifatdosh shaklida qo‘llangan.

Ot aylanib qozig‘ini topganda,

Zot aylanib tuzlig‘ini topganda,

El aylanib o‘zligini topganda,

Sen aylanib qayerlarga ketding, yor...

She’rning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, shoir maqol tarkibida qo‘llangan *aylanib, topganda* birliklarini keyingi 3- misrada ham takror qo‘llash orqali she’rda musiqiy ohangdorlikni yuzaga keltirgan. Bu holatni, nazarimizda, maqol tarkibida qo‘llangan ushbu birliklarning har gal shoir xotirasida assosiativ tarzda tiklanishi natijasida yuzaga kelgan deyish mumkin.

3. Shoir ning mazmunini saqlab qolib, uni qaytadan shakllantirgan.

E.Shukur she'rlarida so'z birikmasi va gap shaklidagi pretsedent birliklar qaytadan shakllantirilgan holatlar ham kuzatildi. Shoir she'rlarida, ko'pincha maqollarning mazmuni saqlanib qolinganda holda she'riy matnga moslashtirilganligi kuzatiladi. Masalan:

Q a r i ya: Imonini bersin,

Ko'rinib qolmoqda so'nggi sarhadlar,

Sitilib ketyapmiz kekxa ulfatlar.

O' r t a yo sh: Yoshin yashab, oshin oshadi, lekin,

Pari bilmaganni bilguvchi edi.

Boshimizni qo'shib turguvchi edi.

Y i g i t: Suyganlar baxtlidir, u chol davrida,

To'y nafasi kelar edi tovushidan...

B o l a: Endi eshagini kim minar ekan?.. ("Qariyaning o'limi xaqidagi xabardan so'ng")

Ushbu she'rdagi "*Pari bilmaganni bilguvchi edi*" misrasi o'zbek xalqining mashhur "*Qari bilmaganni pari bilmas*" maqolining sintaktik jihatdan o'zgartirilgan, ya'ni shoir tomonidan individuallashtirilgan ko'rinishidir. Qariyaning o'limi mavzusiga bag'ishlagan ushbu she'rni yozishda shoir assosiativ tasavvurlariga asoslanganligini anglash mumkin. *Qariya* leksemasi uning xotirasida "*Qari bilmaganni pari bilmas*" maqolini yodiga tushirgan. Shoirning ushbu maqolga ijodiy yondashuvi asosida "*Pari bilmaganni bilguvchi edi*" misrasi dunyoga kelgan.

...O'zbekim, bilaman hammasin, biroq,

Bilmagandan og'ir endi bilganim.

Ming bor o'lganingdan ko'ra xavfliroq

Yuragingda shoir bir bor o'lgani. ("Boyqaro")

Mazkur she'riy parchani o'qir ekan, kitobxon xotirasida assosiativ tarzda "*Har daqiqa o'lib tirilgandan ko'ra, bir marta o'lgan afzal*" o'zbek xalq maqoli tiklanadi. E.Shukur she'riy parchani yaratishda ushbu maqoldan ijodiy foydalangan. U maqolning mazmunini saqlab qolgan holda "*Ming bor o'lganingdan ko'ra xavfliroq Yuragingda shoir bir bor o'lgani*" tarzida o'zgartirgan va bu bilan she'rda badiiylikni hosil qilgan. E.Shukur lirik qahramon ming bor o'lganidan ko'ra, uning yuragida o'zbek shoiri Alisher Navoiyning bir bor o'lishi xavfliroq ekanligini o'ziga xos tarzda badiiy ifodalab, ta'sirchanlikka erishgan.

XULOSA

Xullas, E.Shukur she'riy asarlarida Qur'on suralari, hadislar, xalq maqollarini pretsedent birliklar sifatida qo'llab, badiiy matnda ta'sirchanlikka erishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.87.

2. Е.В. Прецедентный текст как единица формирования когнитивного уровня вторичной языковой личности // Лингвистика и межкультурная коммуникация – М., Выпуск №9, 2013 // <file:///C:/Users/Admin/Downloads/pretsedentnyy-tekst-kak-edinitsa-formirovaniya-kognitivnogo-urovnya-vtorichnoy-yazykovoy-lichnosti.pdf>

3. Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.92.